

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилаётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ” (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА)** мавзусидаги Республикао микёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳрир хайъати ва аъзолари:

О.Х.Ҳамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор
Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор
А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент
Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент
С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.
М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н
М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н
Ф.Ҳ.Бобожонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н
А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)
Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)
О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,
Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири
Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси
Носиров Ш.Ў– Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

*Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар,
маълумотлар, чиқарилган хулосалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг
ўзлари масъул ва жавобгардир*

topilgan. Shimoldan kirish maydoni 10 m² bo'lgan ikkita qo'shni xonaga olib kirgan. Kirish joyiga eng yaqin xonada uchta devor bo'ylab sufalar joylashgan. Janubburchagiga kirish 25 m²lik ikkita qo'shni xonaning majmuasiga olib keladi. Ulardan biri oshxona vazifasini bajargan bo'lsa, ikkinchisi - sufalar va markazdagi podiumlar turar joy bo'lishi mumkin deb taxmin qilingan. Uning asosiy qismi taxminan 200 kvadrat metr maydonni egallagan. Bu yerda bir-biriga o'xshash beshta sopol idishlar topilgan. Xonaning to'sig'ida boy me'moriy bezak kuzatilgan. Ikkita o'yilgan ustunlar qoldiqlari, palmettali friz va stulga o'tirgan oilaning homiysi bo'lgan soqolli odamning bir necha bor takror muhrlangan tasviritopilgan. Uyda bir nechta ovqat xonalari va polda don qoldiqlari topilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ushbu betakror shahar ming yillar davomida cho'l qumliklari ostida qolib ketgan, bu esa uning qoldiqlarini hozirgi kungacha saqlanib qolishiga yordam berdi. Aynan shu uchun arxeologlar bu hududni Osiyoning Pompeyi deb nomlashgan. Poykent Buxoroning ilk shaharsozlik an'analari beshigidir desak sira adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ochilov A. Бухоро воҳасида олиб борилган ilk археологик тадқиқотлар //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
2. Ochilov A. Бухоро воҳасининг қадимги антропоген ландшафтида Сармишсой дарасининг тугган ўрни //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
3. Ochilov A. XIX асрдаги чет эл сайёҳлари асарларида Бухоро воҳаси маданиятининг ёритилиши //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
4. Очилов А.Т., Жўраев Н. Бухоро воҳаси археологик тадқиқотларида хунармандчилик ва савдо алоқалари тарихи// ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 11-14.
5. Очилов А.Т., Салимова З.Х. "Бухоро воҳасининг тарихий географияси шаклланишида Зарафшон дарёсининг ўрни." Scientific progress 3.10 (2022): 86-91.
6. Очилов А. Қуйи Зарафшон воҳасининг тош даври тарихий реконструкцияси масалалари //Journal of Social Sciences. –2022. – Т. 1. – №. 02. –С. 42-45
7. Bobohusenov, A. (2023). Buxoro vohasining antik davri yodgorliklari // scholar, 1(28), 298-302.

ILK O'RTA ASRLARDA DAVLATCHILIK VA BOSHQARUV

Шокирова Ферангиз Фурқат қизи

4 kurs talaba

Rajabov Oybek Iskandarovich

BuxDU katta o'qituvchi

O'rta Osiyo davlatchiligi tarixida VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya ya'ni, Oltoy hududlarida turkiy qabilalar ittifoqining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, Turk hoqonligi xususida talaygina manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning ayrimlari bir-birini inkor etadi. Ushbu manbalar VI asrning oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efessiylarning tarixiy asarlari, shuningdek, epigrafik yodgorliklar - Urxun-Enisey, runiy yozuvlari, Xitoyning "Tan xonadoni tarixi" kabilardir. Qolaversa o'rta asrlar mualliflari at-Tabariy, Denovariy, Beruniy, Narshaxiylar asarlarida ham Turk hoqonligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. Turk atamasining ilk marotaba tilga olinishi 542 yilga to'g'ri keladi. Manbalarda turklar "turk el", "turk", "turkash", "tukdus", "tu-kyu", "tuk-yut" kabi nomlar bilan tilga olinadi. Turklarning kelib chiqishi xususida ko'plab afsonalar mavjuddir. Ayrim afsonalarda turklarning kelib chiqishi Nuh paygambarga borib taqalsa, ayrimlarida ular o'n yashar bola va ona bo'ridan tarqalganligi ta'kidlanadi. Yana boshqa bir afsonaga ko'ra, turk

qabilasining ajdodlari Oltoyning shimoliy yon bag'irlarida joylashgan So viloyatidan kelib chiqqan bo'lib, bu yerdagi qabila boshlig'i Abanbu ularning ilk yo'lboshchisi bo'lgan.

Tarixiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, Turk xoqonligining paydo bo'lishi 551-552 yillarga to'g'ri keladi. 551 yilda Bumin Turk elining xoqoni sifatida oq kigizga o'tkazilib ko'tariladi. Ammo, 552 yilda Bumin to'satdan vafot etib uning o'rniga ukasi Istami taxtga o'tiradi. Istami xoqon O'rta Osiyo, Volga va Shimoliy Kavkaz erlari uchun kurash olib borgan bo'lsa, uning o'g'illari Mug'an hoqon va Taspar xoqonlar Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda o'z hukmronliklarini o'rnatadilar. Bumin hoqonning vorisi bo'lgan Mug'an hoqon janubi-g'arbiy Manchjuriyadagi Mug'ul qabilalari bo'lgan kidanlarni va Yenisey qirg'izlarini bo'ysundirib Markaziy Osiyo va Janubiy Sibirda Turk eli hukmronligini o'rnatadi. VI asrning 60-yillari oxirlariga kelib Turk xoqonligi Vizantiya, Sosoniylar Eroni, Xitoy kabi davlatlarning siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tartibiga qo'shilib, Uzoq Sharqni O'rta yer dengizi mamlakatlari bilan bog'lovchi savdo yo'li nazorati uchun kurash olib bordi.

Turk xoqonligi 603 yilda 2 ga: G'arbiy va Sharqiy qismlariga bo'linishi bilan yakunlandi. Sharqiy Turk hoqonligi Mug'uliston hududlarini, G'arbiy Turk hoqonligi esa, yettisuv, Chu vodiysi, Volga, Kubanning quyi qismi, Irtish, Ishim daryosi bo'yidagi yerlar, O'rta Osiyo va Sharqiy Turkistonning bir qismini o'z ichiga olgan.

Turk hoqonligida davlatning oliy hukmdori "hoqon" unvoniga ega bo'lgan. Xitoy manbalari ma'lumotlariga ko'ra, turkiylar xonni taxtga o'tqazishda maxsus marosim o'tkazishgan. Ya'ni, amaldorlar bo'lajak xonni kigizga o'tqazib, quyosh yurishi buylab 9 marotaba aylantirganlar, ishtirokchilar esa uni qutlab va ulug'lab turganlar. So'ngra xonni otga o'tqazib, bo'yniga ipak mato bog'laganlar va undan "Siz necha yil xon bo'lmoqchisiz?" deb so'raganlar. U necha yil xon bo'lishini aytgan va shu muddat tugagach taxtdan ketgan.

Qadimgi turkiy afsonalarda berilishicha turklarning tasavvuriga ko'ra, davlatchilikning markazi, davlatni o'z qo'lida birlashtiruvchi shaxs hoqon hisoblangan. Boshqaruvda hoqonlarning hukmron sulolasi asosiy bo'lib u uchta kuch - osmon (tangri), yer-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyati tufayli yuzaga keltiriladi.

Hoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor "Yabg'u" (Bahodir) bo'lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo, yabg'u taxtga merosxo'rlik qila olmas edi. Turk xoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo'lgan uluslarga bo'linish tizimiga asoslanib belgilanar edi. Ushbu tizimga ko'ra taxt aksariyat hollarda otadan o'g'ilga emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Taxt merosxo'ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan. O'rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, hoqonning nazoratchisi - "tudun" deb atalgan. Turk hoqonligi konfederativ davlat bo'lgan.

Xoqonlik tarkibidagi ko'plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarib turish, ulardan soliqlar va o'lponlarni yig'ib olishda hoqonlikda maxsus ma'muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan. Davlatni boshqarishda oliy hukmdorga uning yaqin qarindoshlari, hukmron sulola a'zolari hamda quyi boshqaruv tizimi yordam bergan. Manbalarning ma'lumot berishicha, u to'rtga bo'lingan. Ya'ni, qarindoshlar, hoqonga ittifoqdosh bo'lgan qabilalar; hoqonning o'ng tomonida o'tiruvchi amaldorlar, hoqonning chap tomonida o'tiruvchi amaldorlardan iborat bo'lgan. Hoqonning qarindoshlari - o'g'illari, amakisi, jiyanlari va aka-ukalariga "tegin" unvoni berilgan. Xitoy manbalarida, hoqonlikda beshta oliy mansab - exu (yabg'u), she (shod), dele (tegin), silifa (eltabar) va tutunfa (tudun) qabilalar mavjud bo'lib, ularning barchasi meros qilib qoldirilgan. Davlat boshqaruvidagi asosiy mansablar 28 ta bo'lib, 5 tasi oily, 23 tasi o'rta mansablarga bo'lingan.

Turk hoqonligining markaziy boshqaruv tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirlari (davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va bosh.) bilan mashg'ul bo'lib o'zlari zabt etgan hududlardagi boshqaruv tizimiga ma'lum darajada erkinlik berilgan. Shuning uchun ham Farg'ona, Sug'd, Shosh, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruv tartibi asosan mahalliy sulolalar qo'lida bo'lgan. Misol uchun, Sug'd va Farg'onada oliy hukmdor - "ixshid" Toxaristonda -

"malikshoh", Xorazmda - "xorazmshoh", Keshda - "ixrid", Buxoroda - "xudot", Ustrushonada - "afshin", Choch va Iloqda – "budun" deb atalgan.

Xullas, Oʻrta Osiyoning Turk hoqonligi tarkibida boʻlgan davri davlatchilik tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot uchun muhim ahamiyatga ega boʻldi. Turk hoqonligi juda katta hududlardagi turkiy qabilalarning birlashuvi va jiplashuviga keng imkoniyatlar yaratib, Oʻrta Osiyodagi ayrim turkiy xalqlar shakllanishiga asos soldi. Gʻarbiy turk hoqonligining qudratli harbiy tashkiloti, Sugʻdiylarning bevosita aralashuvi tufayli olib borgan diplomatik siyosati Xitoy, Vizantiya va Eronning Oʻrta Osiyo ilk oʻrta asrlar davri xalqlari va elatlariga nisbatan olib borayotgan tajovoʻzkorlik siyosati yoʻliga mustahkam toʻsiq qoʻydi.

адабиётлар

31. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). Бухоро амирлигида ташки сиёсат ва дипломатиянинг ривожланиши тарихидан. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
32. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). Бухоро амирликда оила, никоҳ ва мерос ҳуқуқининг амалда қўлланиши. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
33. Temirov, F. (2023). SADRIDDIN AYNIIY IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 70-70.
34. Temirov, F. Of the journalistic work of Sadriddin Ayni Concerning Issues of Bukhara history. *Irish Interdisciplinary of Science & Research (IJSR) Vol, 6*, 12-17.
35. Темиров, Ф. У. (2023). Жизнь И Научно-Творческая Деятельность Садриддина Айна В Трудах Его Современников. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(2), 128-134.
36. Темиров, Ф. У. (2022). Мустақил ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари ва кадрини улуғлаш–энг олий неъмат. *Academic research in educational sciences*, (1), 184-188.
37. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ–ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
38. UMEDOVICH, T. F. (2021). THE PRESS ACTIVITY OF SADRIDDIN AYNI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(4), 57-62.
39. Temirov, F. (2024). SADRIDDIN AYNIIY-NAVOIY IJODIY MEROSI TADQIQOTCHISI. *Alisher Navoi and 21 st century*, 1(1).
40. Raxmatilloeyevna, F. X., & Umedovich, T. F. (2023). IX-XII ASRLARDA YUZ BERGAN SHARQNING BIRINCHI UYG'ONISH (RENESSANS) DAVRIDA TARIX FANI VA TARIXSHUNOSLIK. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 122-127.

BUXORONING QADIMGI, ILK VA OʻRTA ASRLAR DAVRI TARIXI MASALALARI.

Islamova Qunduz

Chirchiq davlat pedagogika unvarsiteti

Tarix yoʻnalishi 2 bosqich talabasi

Qunduzislamova949@gmail.com 93.189.49.31

Azaldan ilm u maʼrifat beshigi sharq hisoblangan ilk falsafiy qarashlar, ilmiy farazlar vujudga kela boshlagan manzildir. Sharqdagi ulugʻvor shaharlar, zakovatli allomalar, ilmni qoʻllab quvvatlovchi hukmdorlar sharqni insoniyat durdonasiga aylanishiga katta hissa qoʻshganlar. Ana shunday sharqning gavhar shaharlaridan biri Buxoroi sharifdir.

Buxoro oʻzining geografik joylashuvi, qulay iqlim sharoiti, gʻarb va sharqni birlashtiruvchi yoʻlda joylashgan muhim shahar sifatida insonlarni qadimdan oʻziga jalb etib kelgan. Ushbu shahar tarixning bepayon sahifalarida goh poytaxt sifatida gullab yashnagan boʻlsa, gohida qarovsiz vayronalar ichra qolganligi rostdir. Yillar oʻtib Buxoroni ilmiy oʻrganish

О.Х.Хамидов. Қадимий ва ҳамиша навқирон Бухоро илм-фан ва маданият ўчоғи.....3

Сулаймон Иноятов. БУХОРО ФИДОЙИ ЖАДИДЛАРИ ҲАРАКАТИ: ТАРИХ ВА ТАҚДИР	5
Фаррух Темиров, Раъно Раҳимова. БУХОРО ВИЛОЯТИ, ЖОНДОР ТУМАНИДА ЖОЙЛАШГАН “УШОТ” ВА “СОМОНЧУҚ” ҚИШЛОҚЛАРИ ТАРИХИ ҲАҚИДА	15
A.N. Boltayev, O.I. Rajabov. PROFESSOR N.N.TO‘RAYEV – BUXORO TARIXI TADQIQOTCHISI	18
Фаррух Темиров. 2023 йилнинг 20 сентябрда Бухоро давлат музей кўрикхонаси ва Бухоро давлат университетидида “Бухоро тарихи масалалари: тарихий – маданий меросимизни ўрганимиз” мавзусида Республика миқёсидаги илмий семинар ва унинг натижалари хақида	20

1-ШЎҒБА. БУХОРОНИНГ ҚАДИМГИ, ИЛК ВА ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ (АРХЕОЛОГИЯ, ЭТНОГРАФИЯ, ШАҲАРСОЗЛИК, ИЛМ-ФАН, САНЪАТ ВА МАДАНИЯТ).....23

Отахўжаев Азимхўжа Музаффарович. БУХОРОНИНГ ҚАНҒ ДАВЛАТ УЮШМАСИДАГИ ЎРНИ.....	23
Комилжон Раҳимов. ЎРТА АСРЛАРДА БУХОРОДА КУТУБХОНАЛАР ВА КИТОБ ДЎКОНЛАРИ ВА УЛАРДАГИ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИ	25
Shodiyeva Shahlo Soliyevna, Umedov Xurshidbek Jamshid o‘g‘li. SO‘G‘D KONFEDERATAYASIDA DAVLAT BOSHQARUVI	30
Очилов Алишер Тўлис ўғли. ПОЙКЕНТ МУЗЕЙИ - АНТИК ВА ИЛК ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРИХИДАН СЎЗЛОВЧИ МУЗЕЙ	34
Даминов Набижон Абдуолимович. ДОБУСИЯ ҚАЛЪАСИ ТАРИХИ.....	37
Bafoyeva Sarvinoz Umidjon qizi, Ahmadov Ahmadjon Asror o‘g‘li. BUXORO VOHASINING ILK SHAHARLARI:POYKENT VA VARAXSHA	41
Narzulloev Farrux, Ahmadov Ahmadjon Asror o‘g‘li. BUXORONING ANTIK VA ILK O‘RTA ASRLAR TARIXI (POYKENT MISOLIDA)	43
Шокирова Ферангиз Фурқат қизи, Rajabov Oybek Iskandarovich. ILK O‘RTA ASRLARDA DAVLATCHILIK VA BOSHQARUV	46
Islamova Qunduz. BUXORONING QADIMGI, ILK VA O‘RTA ASRLAR DAVRI TARIXI MASALALARI	48
Hikmatova Salomat Hamza qizi, Ahmadov Ahmadjon Asror o‘g‘li. BUXORONING ZAMONBOBO YODGORLIGI MODDIY MADANIYATI.....	51
A‘zam Boltayev, Hamroyev Bekzod. BUXORO TUMANIDAGI ETNOTOPONIMLAR TARIXI.....	53
Umarov Baxtishod. BUXORONING SOMONIYLAR MARKAZIGA AYLANISHI MASALASI.....	56
Juraqulov Muhammadamin Shohtamovich. SOMONIYLAR DAVRIDA KUTUBXONA VA KITOBDORLIK TIZIMI	59
Samaneh Khalili Far, Abbas Iqbal Mehran. INVESTIGATING THE ROLE OF SAMANI RULERS IN THE ART OF PAINTING IN THE SCHOOL OF BUKHARA	63
Narimonov Murodillo Ismat og‘li, Utayeva F.X. SOMONIYLAR DAVLATIDA ILM-FAN, MADANIY HAYOT VA DIN	74
Ozodova O‘g‘iloy Davron qizi, S.A.Toshtemirova. QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHRIDA SHAHARSOZLIKNING RIVOJLANISHI	76
Xo‘jageldiyev Ibodulla Mamaradjab o‘g‘li. BUXORO ME‘MORCHILIGI.....	77
Shodiyeva Shahlo Soliyevna. AMIR TEMURNING OILASI VA OILAVIY HAYOTI: HOKIMIYATINING GENEALOGIK LEGITIMLASHUVI.....	81

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛАРИ

2024 йил 10 май

“Садриддин Салим Бухорий” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Адади 20 нусха. Ҳажми 522 бет. Формат А4. Буюртма 256. 2024 йил.